



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2026-yil 21-yanvar

19-4-0-Q/26

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasiga Qarshi shahri hududidagi
40 ta “Ichimlik va oqova suv ta’minoti inshooti”ning amalda foydalanib
kelinayotgan (egallab turgan) yer uchastkalarini doimiy foydalanish huquqi
asosida ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-oktabrdagi “O‘zsuvta’minot” AJ va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan yer maydonlaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 644-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 17-noyabrdagi 01/16-17362-son buyurtma xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10- va 21¹-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi, vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasiga Qarshi shahri hududidagi 40 ta “Ichimlik va oqova suv ta’minoti inshooti”ning amalda foydalanib kelayotgan (egallab

turgan), qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan jami 9,1207 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev) “Ichimlik va oqova suv ta’minoti inshootlari”ning amalda foydalanib kelayotgan (egallab turgan) yer maydonlarini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlab, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

4. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi “Ichimlik va oqova suv ta’minoti inshootlari”ning amalda foydalanib kelinayotgan yer maydonlaridan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

5. Ajratilgan yer maydonlaridan belgilangan maqsadlarda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining “gov.uz/oz/qashqadaryo” rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 21-yanvardagi
19-4-0-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasiga doimiy foydalanish
huquqi bilan ajratib berilayotgan Qarshi shahri hududidagi "Ichimlik va oqova suv ta'minoti inshootlari"ning
amalda foydalanib kelayotgan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlarining
MANZILLI RO'YXATI**

T.R	Tuman (shahar) nomi	MFY nomi	Inshoot nomi	Yer maydoni (ga)	"Yerelektron" AATga kiritilgan unikal raqami
1.	Qarshi shahri	Shayxali	Shayxali shahar orti oqova tozalash inshooti	0,80	A1710401061/1
2.	Qarshi shahri	Xontepa	Mexanizator KNS-1	0,06	A1710401015/3
3.	Qarshi shahri	Xontepa	Mexanizator KNS-2	0,06	A1710401015/2
4.	Qarshi shahri	Xontepa	Mexanizator suv inshooti	1,0	A1710401015/1
5.	Qarshi shahri	Otchopar	Otchopar suv inshooti	0,24	A1710401039/2
6.	Qarshi shahri	Neftchi	Jayhun KNS	0,045	A1710401036/8
7.	Qarshi shahri	Xudoyzod	Nasos stansiyasi	0,006	A1710401057/2
8.	Qarshi shahri	Xudoyzod	Mustaqillik-24 nasos stansiyasi	0,005	A1710401057/1
9.	Qarshi shahri	Zaxokimaron	Vokzal KNS-1	0,003	A1710401020/6
10.	Qarshi shahri	Zaxokimaron	Zoxokimaron suv inshooti	0,15	A1710401020/5
11.	Qarshi shahri	Eski anhor	Politexnikum suv inshooti	0,25	A1710401062/17
12.	Qarshi shahri	Eski anhor	Daryo bo'yi KNS	0,13	A1710401062/16

13.	Qarshi shahri	Eski anhor	Politexnikum KNS-1	0,005	A1710401062/15
14.	Qarshi shahri	Sho'rtangaz	Sho'rtan suv inshooti	0,39	A1710401030/34
15.	Qarshi shahri	Shayxali	Shayxali-2 suv inshooti	0,47	A1710401060/24
16.	Qarshi shahri	Shodlik	Chashma suv inshooti	0,45	A1710401028/43
17.	Qarshi shahri	Shohbekat	Islom Karimov ko'chasi 20 ABVGD uylar SI KNS	0,005	A1710401029/12
18.	Qarshi shahri	Shohbekat	Vokzal KNS-2	0,016	A1710401029/11
19.	Qarshi shahri	Navo	"Putiprovod" suv inshooti	0,29	A1710401024/48
20.	Qarshi shahri	Komilon	Sho'rtan uylari suv inshooti	0,13	A1710401008/10
21.	Qarshi shahri	Qarliqxon	Komilon suv inshooti	0,20	A1710401006/16
22.	Qarshi shahri	Paxtazor-1	Yangi turmish suv inshooti	0,36	A1710401041/37
23.	Qarshi shahri	Buyuk Turon	Buyuk Turon sanoat zonasi suv inshooti	0,12	A1710401018/33
24.	Qarshi shahri	Buyuk Turon	Aeroport (Qabullar uyi) suv inshooti	0,16	A1710401018/32
25.	Qarshi shahri	Buyuk Turon	Kesh uylari KNS	0,006	A1710401018/31
26.	Qarshi shahri	Buyuk Turon	Aeroport KNS	0,04	A1710401018/30
27.	Qarshi shahri	Bunyodkor	Otchopar KNS	0,26	A1710401063/1
28.	Qarshi shahri	Gulshan	Suv inshooti	0,26	A1710401047/19
29.	Qarshi shahri	Ravoq	Soxil suv inshooti	0,20	A1710401054/1
30.	Qarshi shahri	Tabassum	SP-3 KNS	0,26	A1710401013/50
31.	Qarshi shahri	Maxsimobod	Geolog KNS	0,022	A1710401051/1
32.	Qarshi shahri	Haramjo'y	Geolog suv inshooti	0,71	A1710401014/1
33.	Qarshi shahri	Bog'ishamol	Politexnikum KNS-2	0,0037	A1710401046/18

34.	Qarshi shahri	Bog'ishamol	Bog'ishamol suv inshooti	0,67	A1710401046/17
35.	Qarshi shahri	Batosh	Batosh-3 KNS	0,07	A1710401017/10
36.	Qarshi shahri	Batosh	Batosh-2 KNS	0,022	A1710401017/9
37.	Qarshi shahri	Batosh	Batosh-1 KNS	0,012	A1710401017/8
38.	Qarshi shahri	Arabxona	Arabxona suv inshooti	0,34	A1710401044/6
39.	Qarshi shahri	Amir Temur	Tabassum suv inshooti	0,38	A1710401001/25
40.	Qarshi shahri	Alisher Navoiy	Pedagogika suv inshooti	0,52	A1710401031/9
Jami				9,1207	